



Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik



2019 yil yanvar-mart oylari

E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 74,0 %ni tashkil etdi;
- 1309 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi;
- 2019 yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning soni (har 1000 aholiga, birlikda) 17,7 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida 1309 ta yangi kichik va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 marta ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida (40,8%), sanoat tarmog'ida (20,1%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (13,8%), qurilish tarmog'ida (12,5%), yashash va ovqatlanishda (4,4%) va tashish va saqlashda (2,1%) tashkil etilgan.



2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	10023	12445	2422
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	652	1309	657
YaHM	%	77,4	74,0	-3,4
Sanoat	%	48,7	50,5	-1,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,9	99,3	0,4
Investitsiya	%	63,5	44,7	-18,8
Qurilish	%	98,8	98,0	-0,8
Savdo	%	94,2	90,9	-3,3
Xizmatlar	%	72,3	65,4	-6,9
Yuk tashish	%	88,7	95,1	6,4
Yuk aylanmasi	%	98,0	98,3	0,3
Yo'lovchi tashish	%	98,1	98,0	-0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,8	98,8	0,0
Eksport	%	90,9	64,8	-26,1
Import	%	84,3	97,5	13,2


Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Jizzax viloyati	652	1309
Jizzax sh.	146	416
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	29	44
Baxmal	76	61
G'allaorol	50	88
Sharof Rashidov	115	240
Do'stlik	29	44
Zomin	49	119
Zarbdor	30	48
Zafarobod	20	24
Mirzacho'l	12	59
Paxtakor	35	50
Forish	52	85
Yangiobod	9	31


2019 yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Jizzax shahrida - 416 ta, Sharof Rashidov tumanida - 240 ta, Zomin tumanida - 119 ta. G'allaorol tumanida - 88 ta, Forish tumanida - 85 ta, Baxmal tumanida - 61 ta, Mirzacho'l, Paxtakor, Zarbdor, Do'stlik, va Arnasoy tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 40-60 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Yangiobod tumani - 31 ta va Zafarobod tumani - 24 tani tashkil etgan.

2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi



2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Jizzax sh. ga - 31,8 %, Sharof Rashidov tumani- 18,3 %, Zomin tumani 9,1 %, G'allaorol tumani - 6,7 %, Forish tumani - 6,5 %, Baxmal tumani - 4,7 %, Mirzacho'l tumani - 4,5 %, Paxtakor tumani - 3,8 %, Zarbdor tumani - 3,7 %, Do'stlik tumani - 3,4 %, Arnasoy tumani - 3,4 %, Yangiobod tumani - 2,4 %, eng past ko'rsatkich Zafarobod tumanida - 1,8 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Jami	652	1309
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	202	180
Sanoat	144	263
Qurilish	59	164
Savdo	113	534
Tashish va saqlash	15	28
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	45	58
Axborot va aloqa	9	6
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	8
Boshqa turdagi xizmatlar	57	68

2019 yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdo tarmog'ida **534 ta**, shuningdek:


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 180 ta;

Sanoatda - 263 ta.;

Qurilishda - 164 ta.;

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 58 ta.;


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Savdoda—534 ta, Sanoatda— 263 ta, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 180 ta, Qurilishda - 164 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 58 ta, Tashish va saqlashda - 28 ta, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 8 ta, Axborot va aloqada - 6 ta, va Boshqa turdagi xizmatlarda - 68 tani tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Jizzax shaxrida 23,5 birlikda, Mirzacho'l tumanida 22,7 birlikda, Zarbdor tumanida 20,0 birlikda, Arnasoy tumanida 19,6 birlikda, Yangiobod tumanida 19,4 birlikda, Do'stlik tumanida 18,8 birlikda va G'allaorol tumanida 18,4 bo'lib o'rtacha ko'rsatkich 17,0-15,3 birlik oralig'ida Sharof Rashidov, Baxmal va Forish tumanlarida aniqlandi. Paxtakor va Zomin tumanlarida 13,9 birlikda va Zafarobod tumanida 13,5 birlikda ushbu ko'rsatkichlar past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 15,0 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 16,9 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 1,9 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-martida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 50,5 %, qurilishda - 98,0 %, investitsiyada - 44,7 %, savdoda - 90,9 %, eksportda - 64,8 %, importda - 97,5 % va xizmatlar sohasidagi - 65,4 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi




2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 74,0 % tashkil qildi (2018 yilning yanvar-martida 77,4 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi o'shishi bilan tushuntiriladi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi (yanvar-mart holatiga, %da)



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2019 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Jizzax viloyati	50,5	98,0	65,4	44,7
Jizzax sh.	57,1	96,1	38,9	45,5
tumanlar:				
Arnasoy	21,4	100,0	99,3	16,7
Baxmal	100,0	100,0	94,1	85,7
G'allaorol	100,0	100,0	99,0	63,0
SHarof Rashidov	100,0	100,0	98,9	65,5
Do'stlik	12,4	100,0	98,7	77,2
Zomin	99,7	100,0	93,0	47,4
Zarbdor	20,2	100,0	98,7	75,5
Zafarobod	20,0	100,0	98,5	4,0
Mirzacho'l	100,0	89,0	98,8	51,7
Paxtakor	49,5	100,0	97,0	47,7
Forish	100,0	100,0	99,4	94,7
Yangiobod	100,0	100,0	98,6	90,5

Sanoat soxasida hududlar bo`yicha yuqori ulushini SHarof Rashidov (100,0 %), Baxmal (100,0 %), G'allaorol (100,0 %), Forish (100,0 %), Mirzacho'l (100,0) va Yangiobod (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Jizzax shaxri (96,1 %), Mirzacho'l tumani (89,0 %) va qolgan tumanlarning ulushi 100% ni tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida yuqori ulushni Forish (99,4 %), Arnasoy (99,3 %), G'allaorol (99,0 %), tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada yuqori ulushni Forish (94,7 %), Yangiobod (90,5 %), va Baxmal (85,7 %) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan



2019 yilning yanvar-martida



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 475,6 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 50,5 foizi) yoki 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 97,8 foizni tashkil qildi;

336,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 44,7 foizi) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 94,8 foizni tashkil qildi;



364,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 98,0 foizi) bajarildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 123,8 foizni tashkil qildi;

555,9 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 65,4 foizi), 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 foizni tashkil qildi.




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,9 foizi yoki 995,3 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 101,8 foizni tashkil qildi) shakllantirildi;

15,3 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 64,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 80,2 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 97,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;




avtomobil transporti yuk aylanmasining 101,4 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 98,3 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 102,7 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,8 foizi) ko'payishi ta'minlandi;

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yangiobod, Forish, Mirzacho'l, Zomin, G'allaorol va Sharof Rashidov (100,0 %) tumanlari eng past ko'rsatkichni Zafarobod tumani — 3,5 % ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (240,9 mlrd.so'm), Paxtakor (45,0 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (37,6 mlrd.so'm), Zomin (23,5 mlrd.so'm) va Forish (33,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangiobod (6,7 mlrd.so'm) va Zafarobod tumanlarida (8,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (245,2 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (147,2 mlrd.so'm), Zomin (122,7 mlrd.so'm), va Baxmal (87,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (153,8 mlrd.so'm), SHarof Rashidov (54,0 mlrd.so'm), Paxtakor (22,2 mlrd.so'm) va G'allaorol (26,3 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Jizzax shahri (181,4 mlrd.so'm), SHarof Rashidov (72,4 mlrd.so'm), G'allaorol (55,2 mlrd.so'm), Do'stlik (51,1 mlrd.so'm) va Zomin (36,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yil I - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirm va kichik korxonalarining ulushi Jizzax shahrida - 30,4 % (31 ta), SHarof Rashidov tumanida - 14,7 % (15 ta), Zomin tumanida - 11,8 % (12 ta), Forish tumanida - 7,8 % (8 ta), Zarbdor tumanida - 6,8 % (7 ta), G'allaorol tumanida - 6,8 % (7 ta), Paxtakor tumanida - 4,9 % (5 ta), Baxmal tumanida - 4,9 % (5 ta), Do'stlik tumanida - 3,9 % (4 ta), Mirzacho'l tumanida - 3,9 % (4 ta), Yangiobod tumanida - 2,9 % (3 ta) va Arnasoy tumanida 1,0 % (1 ta)ni tashkil qildi.


2019 yil I - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 17,6 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 68,6 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 15,0 % va 72,5 %, xizmatlar sohasida – 0,0 % va 76,9 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 33,3 % va 46,7 %, sanoatda – 23,8 % va 66,7 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 9,5 %, qurilishda – 7,7 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 20,0 %, xizmatlarda – 23,1 % va savdoda – 12,5 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil I-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 19,3 % sanoat korxonalari, 38,6 % – savdo, 12,0 % – xizmatlar, 14,5 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 15,7 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: F.Baxriddinov

Tel.: (0371) 230-83-43, 230-83-61